



ISSN: 2181-9416

# YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА \* LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
**LIBRARY.RU**

# YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

# ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

# LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



**MINGBOYEVA Sakinabonu Shuhrat qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti tayanch doktoranti

E-mail: [mingboyevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingboyevasakinabonu0202@gmail.com)

## TRANSCHEGARAVIY CHUCHUK SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHDA DAVLATLARARO HAMKORLIKNING HUQUQIY ASOSLARI

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):** MINGBOYEVA S.Sh. Transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlikning huquqiy asoslari // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2025) B. 113-119.

5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

### ANNOTATSIYA

Transchegaraviy chuchuk suv resurslarining boshqaruvi global xavfsizlik, ekologik barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida ilmiy hamjamiyat va siyosiy doiralarda tobora ko'proq e'tibor qaratilayotgan masaladir. Iqlim o'zgarishi, demografik dinamikalar va antropogen bosim natijasida yuzaga kelayotgan suv tanqisligi xalqaro miqyosda nizolar xavfini kuchaytirib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolada transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlikning huquqiy asoslari, suv diplomatiyasi konsepsiyasi va mintaqaviy integratsiya mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Muallifning ilmiy qarashlariga ko'ra, transchegaraviy suvlar faqat tabiiy resurs emas, balki davlatlararo hamkorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish hamda xavfsizlik arxitekturasini mustahkamlashning strategik omili sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, maqolada xalqaro huquq tamoyillari adolatli va oqilona foydalanish, zarar yetkazmaslik, axborot almashish va manfaatdor tomonlarning teng ishtiroki global suv siyosatini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari transchegaraviy suv siyosatida huquqiy mexanizmlar, siyosiy iroda va ilmiy asoslangan boshqaruvning uyg'unligi mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va iqtisodiy integratsiyani ta'minlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, suv diplomatiyasi nizolarni oldini olish va uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirishda innovatsion yondashuv sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** transchegaraviy suv resurslari, suv diplomatiyasi, xalqaro huquq, davlatlararo hamkorlik, barqaror rivojlanish, global xavfsizlik, ekologik barqarorlik, suv siyosati, manfaatlar muvozanati, adolatli foydalanish, zarar yetkazmaslik tamoyili, axborot almashish, integratsion jarayonlar, siyosiy iroda, resurslarni boshqarish, xalqaro institutlar, mintaqaviy hamkorlik, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, strategik xavfsizlik.

**МИНГБОЕВА Сакинабону**Докторант Ташкентского государственного  
юридического университетаE-mail: [mingboyevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingboyevasakinabonu0202@gmail.com)

## ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ МЕЖГОСУДАРСТВЕННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ПРЕСНОВОДНЫХ РЕСУРСОВ

### АННОТАЦИЯ

Управление трансграничными пресноводными ресурсами рассматривается как неотъемлемая составляющая глобальной безопасности, экологической устойчивости и экономического развития, что находит всё большее отражение в научном и политическом дискурсе. Изменение климата,

демографическая динамика и антропогенное давление усиливают дефицит воды, повышая риск международных конфликтов и создавая новые вызовы на пути достижения целей устойчивого развития. В статье проводится комплексный анализ правовых основ межгосударственного сотрудничества в области использования трансграничных водных ресурсов, концепции водной дипломатии и механизмов региональной интеграции. С точки зрения автора, трансграничные воды должны рассматриваться не только как природный ресурс, но и как стратегический фактор укрепления международного сотрудничества, стимулирования социально-экономического развития и формирования архитектуры безопасности. Особое внимание уделяется принципам международного права справедливого и разумного использования, недопущения ущерба, обмена информацией и равного участия заинтересованных сторон, которые оцениваются как методологическая основа глобальной водной политики. Результаты исследования показывают, что сочетание правовых механизмов, политической воли и научно обоснованного управления является ключевым условием обеспечения региональной безопасности, устойчивого развития и экономической интеграции. Водно-дипломатический подход при этом интерпретируется как инновационный механизм предотвращения конфликтов и укрепления долгосрочного сотрудничества.

**Ключевые слова:** трансграничные водные ресурсы, водная дипломатия, международное право, межгосударственное сотрудничество, устойчивое развитие, глобальная безопасность, экологическая устойчивость, водная политика, баланс интересов, справедливое использование, принцип недопущения ущерба, обмен информацией, интеграционные процессы, политическая воля, управление ресурсами, международные институты, региональное сотрудничество, дефицит воды, изменение климата, стратегическая безопасность.

**SAKINABONU Mingboyeva**

PhD student at Tashkent State University of Law

E-mail: [mingboyevasakinabonu0202@gmail.com](mailto:mingboyevasakinabonu0202@gmail.com)

## LEGAL FOUNDATIONS OF INTERSTATE COOPERATION IN THE UTILIZATION OF TRANSBOUNDARY FRESHWATER RESOURCES

### ANNOTATION

The governance of transboundary freshwater resources is increasingly recognized as a fundamental component of global security, ecological sustainability, and economic development within both academic and political discourse. Climate change, demographic pressures, and anthropogenic stress are intensifying water scarcity, thereby heightening the risks of international conflicts and posing new challenges to achieving the Sustainable Development Goals. This article provides a comprehensive analysis of the legal foundations of interstate cooperation in the management of transboundary water resources, the concept of water diplomacy, and the mechanisms of regional integration. According to the author's perspective, transboundary waters should be regarded not merely as natural resources but as strategic instruments for strengthening international cooperation, fostering socio-economic development, and reinforcing security architectures. Particular emphasis is placed on the principles of international law equitable and reasonable utilization, the obligation not to cause harm, information exchange, and the equal participation of stakeholders which are evaluated as the methodological foundations of global water policy. The findings demonstrate that the synergy of legal mechanisms, political will, and scientifically informed governance constitutes a key prerequisite for ensuring regional security, sustainable development, and economic integration. Within this framework, water diplomacy is interpreted as an innovative approach to conflict prevention and the promotion of long-term cooperation.

**Keywords:** transboundary water resources, water diplomacy, international law, interstate cooperation, sustainable development, global security, ecological sustainability, water policy, balance of interests, equitable utilization, no-harm principle, information exchange, integration processes, political will, resource management, international institutions, regional cooperation, water scarcity, climate change, strategic security.

Zamonaviy xalqaro huquqiy munosabatlarni tahlil qilish davomida shu jihat ma'lum bo'ldiki, transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanish sohasida davlatlararo hamkorlik xalqaro huquqning deyarli barcha tarmoqlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquqda inson huquqlari, Xalqaro ekologiya huquqi, Xalqaro xavfsizlik huquqi, Xalqaro gumanitar huquq, Xalqaro jinoyat huquqi, Xalqaro nizolarni tinch hal etish huquqi kabi xalqaro huquq sohalari transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Negaki dunyo davlatlarining deyarli barchasida transchegaraviy chuchuk suv resurslari mavjud bo'lib, ularni samarali va oqilona boshqarish, aholining toza ichimlik suvidan foydalanishga bo'lgan huquqini ta'minlash, iqtisodiyotda suv resurslaridan isrofgarchiliksiz sarf etilishi, ularning zararlantirilmasligi kabi masalalar xalqaro huquq bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek, dunyo aholisi duch kelayotgan iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammolar, muzliklarning erishi, demografik o'sish (hozirgi kunda dunyo aholisi 8 mlrd.dan oshgan bo'lib, 1800-yilda yer yuzida 1 mlrd. aholi mavjud bo'lgan bo'lsa, 225 yil davomida aholi soni 7 mlrd.dan ortiqqa ko'paydi. 1950-yildan boshlab, aholining demografik o'sishi keskin ko'tarildi, bu bevosita inson huquqlarining ta'minlanishi bilan bog'liq), sanoat kompaniyalarining ko'payishi, suv iste'moli sarfining keskin oshishi chuchuk suv tanqisligi muammosini oshirib bormoqda [1]. Shu jihatdan ko'rish mumkinki, bu munosabatlar xalqaro huquqda katta amaliy ahamiyatga ega. Xalqaro huquqning asosiy xususiyatlaridan biri esa uning huquqiy tartibga solinishi xalqaro shartnomalar, paktlar, protokollar ko'rinishida namoyon bo'lishidadir.

Xalqaro munosabatlarda transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlik masalasi alohida e'tibor talab qiladiki, uni nafaqat xalqaro-huquqiy shartnomalar, balki ikki va ko'p tomonlama shartnomalar bilan ham tartibga solish lozim bo'ladi. Xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, xalqaro paktlar transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishga oid barcha qoidalarni o'z ichiga qamrab olmaydi, ayniqsa, individual xarakter kasb etadigan jihatlar mintaqaviy, ikki va ko'p tomonlama kelishuvlar bilan huquqiy tartibga solinadi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlikning nazariy asoslarini, amaliy mexanizmlarini va mintaqaviy tajribalarini tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur maqsadni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy vazifalar ko'zda tutilgan bo'lib, ular jumlasiga Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyalari hamda mintaqaviy kelishuvlarni tahlil qilish, transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlik va uning samaradorligini baholash kiradi. Tadqiqotning obyekti transchegaraviy chuchuk suv resurslari va ular ustidan davlatlararo hamkorlik jarayonlaridan iborat bo'lsa, predmeti xalqaro huquqiy normalar, davlatlar o'rtasidagi kelishuvlar, hamkorlik institutlari, suv taqsimoti amaliyoti hamda ularning barqaror rivojlanish va xavfsizlikka ta'sirini o'z ichiga oladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi suv diplomatiyasi konsepsiyasi asosida davlatlararo hamkorlikning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid takliflar ilgari surilganligi bilan izohlanadi. Mazkur tadqiqotda tahliliy va qiyosiy metodlardan, geosiyosiy yondashuvdan, barqaror rivojlanish nazariyasidan, xalqaro huquqiy tahlildan hamda empirik tajribaga asoslangan qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

BMTning ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda 10 ta davlat transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda xalqaro me'yorlarga tayangan bo'lsa, 2020-yilda 32 ta davlat transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda umumiy qamrovining 90% holatida davlatlararo hamkorlikning xalqaro



huquqiy asoslarini milliy qonunchiligida tatbiq etgan[2]. Transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni xalqaro huquqiy tartibga solishda *Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha konvensiyasi (UNECE 1992)*, *Xalqaro suv yo'llaridan navigatsiyasiz foydalanish huquqi to'g'risidagi konvensiya (UN 2014)*lar muhim ahamiyat kasb etgan bo'lib, ularda xalqaro ko'llar va transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq asosiy qoidalar belgilab qo'yilgan. Inson huquqlarining ta'minlanishi jihatidan olinadigan bo'lsa, BMT nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, BMT Bosh Assambleyasining 2010-yildagi rezolyutsiyalari ham huquqiy asos bo'ladi.

*Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha konvensiyasi (Xelsinki konvensiyasi)* transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish masalasida birinchi fundamental xalqaro huquqiy hujjat sifatida tarixiy ahamiyatga ega[3]. Uning tamoyillari ekologik barqarorlik, davlatlarning majburiy hamkorligi, ma'lumot almashish va monitoring tizimlarini joriy etish, shuningdek, suv resurslari ustidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan mojarolarning oldini olishga qaratilgan. Konvensiya amalda transchegaraviy suvlarni birgalikda boshqarishning institutsional modelini shakllantirdi. Dunay, Reyn va Dnepr havzalarida tuzilgan qo'shma komissiyalar bunga yorqin misoldir. Eng muhim jihati shundaki, 2016-yildan boshlab ushbu konvensiya barcha BMT a'zo davlatlari uchun qo'shilishga ochiq bo'ldi va global darajadagi universal huquqiy hujjatga aylandi.

BMTning 1997-yilda qabul qilinib, 2014-yilda kuchga kirgan *Xalqaro suv yo'llaridan navigatsiyasiz foydalanish huquqi to'g'risidagi konvensiyasi (Nyu York konvensiyasi)* esa transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishni global darajada tartibga soluvchi eng muhim xalqaro standartdir. Ushbu hujjat uch asosiy prinsipga tayanadi[4]. Birinchidan, oqilona foydalanish prinsipi bo'yicha davlatlar suv resurslaridan o'z ehtiyojlariga qarab foydalanganda boshqa davlatlarning huquqlarini cheklamasligi lozim. Ikkinchidan, zarar yetkazmaslik prinsipi doirasida hech bir davlat boshqa davlat hududiga suvdan foydalanish natijasida sezilarli zarar yetkazmasligi kerak. Uchinchidan, hamkorlik va axborot almashish prinsipi asosida davlatlar o'rtasida monitoring, ma'lumotlar almashuvi va favqulodda vaziyatlarda tezkor ogohlantirish mexanizmlarini joriy etish ko'zda tutiladi. Bu tamoyillar global miqyosda suvdan foydalanishning huquqiy standartlarini belgilab, transchegaraviy suv diplomatiyasi rivojiga mustahkam asos bo'ldi.

Ikkala konvensiya o'rtasida o'xshashliklar ko'p bo'lsa-da, ular bir-birini to'ldiruvchi jihatlariga ham ega. Masalan, ikkala hujjatda ham adolatli foydalanish, zarar yetkazmaslik va hamkorlik tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Shu bilan birga, Xelsinki konvensiyasi dastlab Yevropa mintaqasiga qaratilgan bo'lsa, Nyu York konvensiyasi global xususiyat kasb etadi. Yana bir farqi shundaki, Xelsinki konvensiyasi ekologik omillarga va institutsional mexanizmlarga katta urg'u beradi, ya'ni qo'shma komissiyalar va kotibiyat kabi hamkorlik institutlarini belgilaydi. BMT konvensiyasi esa ko'proq universal huquqiy standartlarni o'rnatish va adolatli taqsimot prinsipini mustahkamlashga yo'naltirilgan. Ushbu huquqiy hujjatlar davlatlararo hamkorlikning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Birinchidan, ular suv diplomatiyasini shakllantirib, davlatlar o'rtasida doimiy muloqot va kelishuv mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ikkinchidan, suv ustidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizolarni huquqiy asosda hal qilish imkonini beradi va mojarolarning oldini oladi. Uchinchidan, ular ekologik xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyani ta'minlash orqali barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. To'rtinchidan, bu hujjatlar mintaqaviy tajribalar uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi, xususan, Markaziy Osiyo, Afrika va Osiyodagi suv havzalari bo'yicha hamkorlik tashabbuslarining huquqiy poydevorini yaratadi.

Transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlik suv diplomatiyasining asosiy tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. **Marko Keskinen, Erik Salminen va Juho Haapalaning** "*Water Diplomacy Paths – An Approach to Recognise Water Diplomacy*

*Actions in Shared Waters*” nomli tadqiqoti transchegaraviy chuchuk suv resurslarini boshqarishda suv diplomatiyasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega[5]. Mualliflar suv diplomatiyasini faqat huquqiy kelishuvlar yoki rasmiy muzokaralar doirasida emas, balki siyosiy, texnik va ijtimoiy jarayonlarning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida talqin etadilar. Mazkur tadqiqot nazariy jihatdan barqaror rivojlanish paradigmasi va suv xavfsizligi tushunchalari bilan uzviy aloqador bo‘lib, suvni “yumshoq kuch” vositasi sifatida geosiyosiy, iqtisodiy va ekologik manfaatlar muvozanatini shakllantirishga xizmat qiladi. Amaliy jihatdan esa, ushbu yondashuv transchegaraviy suv havzalarida nizolarni oldini olish, manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash va diplomatik muloqotni samarali tashkil etishda metodologik asos sifatida qo‘llanishi mumkin. **Adam Krzymovskining fikricha**, iqlim o‘zgarishi, demografik bosim va ekologik stress natijasida chuchuk suv resurslari tobora tanqis bo‘lib bormoqda va bu jarayon global miqyosda siyosiy hamda iqtisodiy xavfsizlikka bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda[6]. Shu nuqtayi nazardan, suv diplomatiyasi nafaqat resurslarni taqsimlash vositasi, balki nizolarning oldini olish, manfaatdor tomonlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash va integratsion hamkorlikni shakllantirishning muhim mexanizmi sifatida talqin etiladi.

Transchegaraviy suv resurslarini boshqarishda mintaqaviy darajadagi huquqiy hujjatlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Yevropa iqtisodiy komissiyasi doirasida qabul qilingan Espoo Konvensiyasi (1991) transchegaraviy ekologik ta’sirlarni baholash majburiyatini belgilab, qo‘shni davlatlar o‘rtasida atrof-muhitga ta’sirlarni oldindan muhokama qilish va baholash mexanizmini yaratdi. Shu bilan birga, UNECE Protokoli suv va salomatlik to‘g‘risida (1999) suv xavfsizligi va sanitariya masalalarini xalqaro darajada muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi Suv Ramka Direktivi (2000) esa integratsiyalashgan suv resurslarini boshqarish tamoyillarini joriy etib, havza asosida boshqaruv yondashuvini mintaqaviy siyosat darajasiga ko‘tardi. Afrika qit’asida suv resurslari bo‘yicha tuzilgan kelishuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Niger daryosi komissiyasi (1964) va Senegal daryosi tashkiloti (1972) transchegaraviy havzalarda qo‘shma boshqaruv va manfaatlarni uyg‘unlashtirish mexanizmini yo‘lga qo‘ydi. Shuningdek, Zambezi daryosi shartnomalari suv resurslaridan barqaror foydalanish va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Janubiy Amerikada esa Amazon hamkorlik shartnomasi (1978) mintaqaviy suv diplomatiyasining poydevorini yaratdi va Amazon havzasidagi davlatlar uchun suv, ekologiya hamda iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asosini mustahkamladi. Markaziy Osiyo mintaqasida transchegaraviy suv resurslari bo‘yicha hamkorlik Orol dengizi havzasi bo‘yicha davlatlararo kelishuvlar (1992, 1993, 1995, 1998) va Xalqaro Amudaryo va Sirdaryo jamg‘armasi (IFAS) hujjatlari orqali shakllangan. Ushbu bitimlar Orol inqirozining oqibatlarini yumshatish, suv-energetika balansini muvofiqlashtirish va barqaror boshqaruvni ta’minlashni maqsad qilgan.

Xalqaro va mintaqaviy shartnomalarning asosiy maqsadi transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishda davlatlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlash, nizolarning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiyani qo‘llab-quvvatlash ekanligidan kelib chiqqan holda ular hozirgi kun talablarini qanoatlantira olishi masalasi muhim hisoblanadi. Bu bevosita dunyo hamjamiyati yuz tutayotgan global muammolar, jumladan, aholi sonining keskin o‘sishi, global isish natijasida muzliklarning erishi, epidemiyalar bilan bog‘liq. Suv tanqisligi transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanishda davlatlararo hamkorlik sohasida yangi bosqichni talab qilmoqda. Markaziy Osiyo misolida olinadigan bo‘lsa, mintaqaning ikki yirik transchegaraviy daryolari hisoblanadigan Amudaryo va Sirdaryodan samarali foydalanishda davlatlararo hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Jumladan, 2025-yil 31-mart kuni Xo‘jand shahrida (Tojikiston Respublikasi) **O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston** prezidentlari Shavkat Mirziyoyev, Imomali Rahmon va Sodik Japarovning uch tomonlama uchrashuvi davlatlararo munosabatlarni yanada mustahkamladi

[7]. Ushbu vaziyat mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi ijobiy dinamikaning davomi bo'lib, unga 2024-yilda imzolangan **O'zbekiston va Tojikiston** o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma ham yordam beradi [8].

Iqlim o'zgarishi, demografik bosim va tezkor urbanizatsiya jarayonlari natijasida suv taqchilligi chuqurlashib borar ekan, ushbu resurslardan oqilona foydalanish davlatlararo munosabatlarda nafaqat ekologik va iqtisodiy, balki siyosiy hamda huquqiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, transchegaraviy suvlarni boshqarishda samarali davlatlararo hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish, huquqiy asoslarni mustahkamlash va institutsional ishonchni ta'minlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Huquqshunos olimlardan **S. McCaffrey** o'z tadqiqotlarida qayd etganidek [9], suv huquqi faqat resurslarni taqsimlash qoidalari emas, balki hamkorlikning barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan normativ baza sifatida qaralishi lozim. Mintaqaviy integratsiya jarayonida suv siyosatini uyg'unlashtirish masalasi alohida e'tibor talab qiladi. Jahon banki va BMTning suv bo'yicha hisobotlarida ta'kidlanishicha, transchegaraviy havzalarning aksariyati ikki yoki undan ortiq davlat hududini qamrab oladi va milliy darajadagi izolyatsiyalangan yondashuvlar ko'pincha kelishmovchiliklarga sabab bo'ladi. Shuning uchun, integratsion siyosat davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, umumiy havzalarni ekotizim orqali boshqarish va suv resurslarini adolatli taqsimlash imkonini beradi. Suv diplomatiyasi bugungi kunda nafaqat resurslarni taqsimlash vositasi, balki tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlovchi muhim institut sifatida ko'rilmoqda. Huquqshunos olimlar **A. Tanzi** va **O. McIntyre** qayd etishlaricha [10], transchegaraviy suv resurslari bilan bog'liq nizolarni bartaraf etish jarayonida diplomatik mexanizmlar huquqiy me'yorlardan ko'ra ko'proq samara berishi mumkin, chunki ular tomonlar o'rtasida o'zaro ishonchni tiklash va kelishuvga erishishni osonlashtiradi. Shu jihatdan, xalqaro vositachilik institutlarini joriy etish va suv diplomatiyasini mustaqil yo'nalish sifatida rivojlantirish dolzarbdur. Masalan, Nil havzasida yoki Markaziy Osiyoda o'tkazilgan ko'plab muzokarlarda xalqaro vositachilik ishtiroki muzokaralarning konstruktiv kechishini ta'minlagan. Demak, suv diplomatiyasi mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shuvchi, nizolarni oldini oluvchi mexanizm sifatida qaralishi kerak. Transchegaraviy suvlarni boshqarishda shaffoflik va ma'lumot almashish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, faqat oz sonli davlatlar o'z hududidagi transchegaraviy havzalarning to'liq qamrab olingan monitoring tizimiga ega. Holbuki, suv oqimi, sifati va iste'moli bo'yicha ishonchli ma'lumotlarning mavjud emasligi davlatlar o'rtasida shubha va kelishmovchiliklarni kuchaytiradi. Shu sababli yagona elektron monitoring va axborot almashish tizimini yaratish zarur. Bu tizim real vaqtda ma'lumot taqdim etishi, suv taqsimotidagi adolatsizliklarni kamaytirishi va siyosiy hamkorlikni mustahkamlashi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ma'lumot almashish tizimi mavjud bo'lgan havzalarda nizolar keskinligi past bo'ladi va ishonch darajasi yuqori bo'ladi. Iqlim o'zgarishi natijasida suv resurslarining tabiiy aylanishi izdan chiqayotgan bir davrda, tomchilatib sug'orish, qayta ishlash va desalinizatsiya kabi texnologiyalar transchegaraviy havzalarda ekologik stressni yengillashtirishga xizmat qiladi. Olimlar **M. Salman** va **S. Paisley** o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi sektorida suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish davlatlararo munosabatlarda ham resurslar uchun raqobatni kamaytirishini ta'kidlaydilar [11]. Shu nuqtayi nazardan, ekologik barqarorlik masalasi nafaqat ichki siyosat, balki davlatlararo hamkorlikning ham ustuvor yo'nalishi bo'lishi kerak.

Transchegaraviy chuchuk suv resurslaridan foydalanish masalasi global siyosat, xalqaro huquq va barqaror rivojlanish muammolarining markazida turibdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi, demografik bosim va ekologik stress sharoitida suv resurslari tobora strategik ahamiyati ortmoqda, ularning oqilona boshqarilishi xalqaro xavfsizlik va iqtisodiy integratsiyaning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois davlatlararo hamkorlikning huquqiy, siyosiy va institutsional mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat mintaqaviy barqarorlik, balki global xavfsizlik



arxitekturasining mustahkamlanishi uchun ham zarurdir. Ilmiy izlanishlar hamda huquqshunos olimlarning mulohazalari shuni ko'rsatadiki, oqilona foydalanish tamoyili, zarar yetkazmaslik prinsipi, shuningdek, shaffof ma'lumot almashuvi va manfaatdor tomonlarning keng ishtiroki transchegaraviy suvlarni boshqarishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo mavjud xalqaro-huquqiy hujjatlar amaliyotda ko'pincha siyosiy iroda va institutsional mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlanmagani sababli ularning samaradorligi yetarli emas. Demak, davlatlararo hamkorlik faqat huquqiy asoslar emas, balki diplomatik vositalar, iqtisodiy manfaatdorlik va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtiruvchi kompleks yondashuvni talab etadi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, havza darajasida integratsiyalashgan boshqaruv modeli eng maqbul yechim sifatida shakllanmoqda. U nafaqat resurslardan samarali foydalanishni, balki ekologik barqarorlik va ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ham ta'minlaydi. Mintaqaviy institutlarning shakllanishi, davlatlararo monitoring tizimlari va suvni tejovchi innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi mazkur jarayonni yanada mustahkamlashi mumkin. Shu ma'noda, davlat, biznes va fuqarolik jamiyatining hamkorligi kelajakdagi suv siyosatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim. Xalqaro xavfsizlik kontekstida esa suv resurslari tobora strategik resurs sifatida namoyon bo'lmoqda. Suv bo'yicha kelishmovchiliklar boshqa siyosiy nizolar bilan qo'shilganda mojarolarni kuchaytirishi mumkin, biroq hamkorlik va suv diplomatiyasi vositalari mojarolarni oldini olish, ishonchni mustahkamlash va integratsion jarayonlarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois, suv diplomatiyasini mustaqil xalqaro siyosiy yo'nalish sifatida shakllantirish istiqbollari tobora yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Umuman olganda, transchegaraviy suv resurslaridan oqilona foydalanishning muvaffaqiyati siyosiy iroda, huquqiy me'yorlarning samarali qo'llanilishi, ilmiy bilimlarga asoslangan qaror qabul qilish va manfaatdor tomonlarning faol ishtirokiga bog'liqdir. Suv siyosatini nafaqat tabiiy resurslarni boshqarish sohasi, balki global xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va ekologik barqarorlikning markaziy elementi sifatida talqin etish kelajakda barqaror rivojlanishning hal qiluvchi sharti bo'lib qoladi. Shu tariqa, transchegaraviy suv siyosati hozirda davlatlararo hamkorlikning strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Worldometer. (n.d.). Current world population. <https://www.worldometers.info/world-population/>
2. Versieux, B. H., & Bahia, G. S. (2023, March 23). International conventions on water. Mundorama. <https://medi-um.com/mundorama/international-conventions-on-water-83f80e873736e>
3. Transchegaraviy ochiq suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda foydalanish bo'yicha Konvensiyaga qo'shilish to'g'risida, PQ-683. LexUZ. <https://lex.uz/docs/-1331404>
4. United Nations. (1997). Convention on the Law of the Non-navigational Uses of International Watercourses. [https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8\\_3\\_1997.pdf](https://legal.un.org/ilc/texts/instruments/english/conventions/8_3_1997.pdf)
5. Keskinen M., et al. (2021). Water Diplomacy Paths – An Approach to Recognise Water Diplomacy Actions in Shared Waters. Journal of Hydrology, Vol. 602, 126759. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0022169421007873#bi005>
6. Krzymowski, A. (2021). Water diplomacy and its strategic significance for Sustainable Development Goals and global security architecture. Sustainability, 13 (24), 13898. <https://doi.org/10.3390/su132413898>
7. Raimova, M. (2025, 8 aprel). Укрепление регионального партнёрства: Узбекистан, Таджикистан и Кыргызстан заключили Договор о точке стыка государственных границ. Yuz.uz. <https://yuz.uz/ru/news/ukreplenie-regionalno-go-partnyorstva-uzbekistan-tadjikistan-i-krgzstan-zaklyuchili-dogovor-o-tochke-stka-gosudarstvennx-granits>
8. O'zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani (Dushanbe, 2024-yil 18-aprel) ratifikatsiya qilish haqida [Qonun]. LexUZ. <https://lex.uz/docs/-7378957>
9. McCaffrey, S. C. (2007). The Law of International Watercourses (2nd ed.). Oxford, UK: Oxford University Press.
10. Tanzi, A., & McIntyre, O. (Eds.). (2015). The UNECE Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes: Its Contribution to International Water Cooperation. Leiden – Boston: Brill Nijhoff.
11. Paperet, G., & Vose, P. (2023). Enhancing agricultural water-saving technologies and their role in transboundary resource cooperation. Water Governance Journal, 15(2), 45–63.

**YURIST AXBOROTNOMASI**

5-SON, 7-JILD

**ВЕСТНИК ЮРИСТА**

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

**LAWYER HERALD**

VOLUME 7, ISSUE 5

**ISSN 2181-9416**

**DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416**